

SHODIQL HAMRO HIKOYALARIDA RAMZIYLIK POETIKASI VA FALSAFIY-ESTETIK TALQIN

Oripova Sarvinoz Narzulloyevna

“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasining “Xorijiy filologiya”
kafedrası katta o‘qituvchisi

E-mail: sarvinozoripova54@gmail.com

ORCID: 0009-0001-9000-0682

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21514689>

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining yetuk namoyandalaridan biri bo‘lgan Shodiqul Hamro ijodida ramziylik poetikasi va falsafiy-estetik talqin masalalari tahlil qilinadi. Xususan, adibning “Suratdagi ayol” hikoyasi misolida ramziy obraz yaratish tamoyillari, inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini badiiy ifodalash usullari hamda mifopoetik tafakkurning o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi. Hikoyadagi surat obrazi oddiy predmet emas, balki inson xotirasi, yolg‘izlik, armon va ruhiy iztiroblarning badiiy modeli sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda Shodiqul Hamro ijodining jahon modern adabiyoti an‘analari, xususan, absurd va ekzistensial tafakkur bilan bog‘liq jihatlari ham yoritiladi. Muallif ramz orqali voqelikning yashirin ma’nolarini ochish, inson ong osti kechinmalarini tasvirlash va zamonaviy inson obrazini yaratish masalalariga e’tibor qaratadi.

Kalit so‘zlar: ramziylik, falsafiy-estetik talqin, hikoya janri, mifopoetika, modernizm, absurd, inson ruhiyati, badiiy obraz

ПОЭТИКА СИМВОЛИЗМА И ФИЛОСОФСКО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В РАССКАЗАХ ШОДИКУЛА ХАМРО

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы поэтики символизма и философско-эстетической интерпретации в творчестве одного из ведущих представителей современной узбекской новеллистики Шодикула Хамро. На примере рассказа «Женщина на фотографии»

рассматриваются принципы создания символического образа, художественные способы изображения сложных пластов человеческой психики, а также своеобразие мифопоэтического мышления писателя. Образ фотографии в рассказе трактуется не как обычный предмет, а как художественная модель человеческой памяти, одиночества, несбывшихся надежд и душевных страданий. Кроме того, в исследовании анализируются общие черты творчества Шодикула Хамро с традициями мирового модернизма, в частности с эстетикой абсурда и экзистенциальным мышлением. Особое внимание уделяется мастерству писателя в раскрытии скрытых смыслов действительности посредством символических образов, художественном воплощении подсознательных переживаний человека и создании образа современного человека.

Ключевые слова: символизм, философско-эстетическая интерпретация, жанр рассказа, мифопоэтика, модернизм, абсурд, экзистенциализм, человеческая психика, художественный образ

THE POETICS OF SYMBOLIC EXPRESSION AND PHILOSOPHICAL-AESTHETIC INTERPRETATION IN SHODIQUIL HAMRO'S SHORT STORIES

Abstract: This article examines the poetics of symbolism and the issues of philosophical and aesthetic interpretation in the works of Shodiquil Hamro, one of the prominent representatives of contemporary Uzbek short fiction. Using the short story "The Woman in the Photograph" as a case study, the paper explores the principles of creating symbolic imagery, the artistic representation of the complex layers of the human psyche, and the distinctive features of mythopoetic thinking. In the story, the photograph functions not merely as an ordinary object but as an artistic model embodying human memory, loneliness, unfulfilled aspirations, and inner suffering. The study also highlights the affinities between Shodiquil Hamro's creative approach and the traditions of world literary modernism, particularly the aesthetics of the absurd and existential thought. Special attention is given to the

author's use of symbolism to reveal the hidden meanings of reality, depict subconscious human experiences, and construct the image of the modern individual.

Keywords: *symbolism, philosophical and aesthetic interpretation, short story genre, mythopoetics, modernism, absurdism, existentialism, human psyche, artistic image*

KIRISH

Adabiyot taraqqiyoti jarayonida har bir janr davr talabi, estetik qarashlar va ijodiy izlanishlar ta'sirida muntazam ravishda yangilanib boradi. Ayniqsa, hikoya janri o'zining ixcham shakli va katta mazmunni ifodalash imkoniyati bilan inson hayotining murakkab jihatlarini ochib berishda muhim badiiy vositalardan biri hisoblanadi. Hikoya kichik hajmli janr bo'lishiga qaramay, unda inson taqdiri, jamiyat muammolari, ruhiy izlanishlar va falsafiy mushohadalar keng ifodalanishi mumkin. XX asr o'zbek hikoyachiligi rivojida ijtimoiy-siyosiy omillar sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Sho'ro davri mafkuraviy talablari adabiy jarayonda ma'lum cheklovlarni yuzaga keltirdi. Badiiy asarda insonning ichki olami, ruhiy ziddiyatlari va mavjudlik muammolaridan ko'ra, ko'proq ijtimoiy g'oyalar aks ettirilishi talab qilindi. Mustaqillik davriga kelib esa adabiyotda inson shaxsiga, uning ichki kechinmalariga, ong osti jarayonlariga yangicha nazar bilan qarash imkoniyati paydo bo'ldi. Zamonaviy o'zbek nasrida inson ruhiyatini chuqur tahlil qilish, ramziy va falsafiy qatlamlardan foydalanish tendensiyasi kuchaydi. Bu jarayonda Shodiqul Hamro ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Adib o'z asarlarida oddiy hayotiy voqealar orqali murakkab falsafiy masalalarni ilgari suradi, insonning yolg'izligi, ruhiy iztiroblari va hayot mohiyati haqidagi savollarni badiiy talqin qiladi.

Shodiqul Hamroning "Suratdagi ayol" hikoyasi aynan shunday falsafiy-estetik izlanish mahsuli hisoblanadi. Asarda real va noreal olam chegaralari qorishib ketadi, oddiy surat esa inson taqdirini ochuvchi ramziy vositaga aylanadi. Hikoyadagi voqealar rivoji orqali yozuvchi nafaqat bir ayolning fojeali qismatini, balki inson xotirasi, yolg'izlik va mavjudlik muammolarini ham yoritadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda adabiy-tahliliy, qiyosiy-tipologik hamda mifopoetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Shodiqul Hamro hikoyalaridagi ramziy obrazlar, badiiy detal va kompozitsion qurilish xususiyatlari zamonaviy adabiyotshunoslik mezonlari asosida o'rganildi.

Tadqiqotning nazariy asosini hikoya janrining poetik xususiyatlari, badiiy obraz yaratish tamoyillari hamda modern adabiyotdagi ramziylik masalalariga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Shuningdek, jahon adabiyotidagi ekzistensializm va absurd falsafasi bilan bog'liq badiiy tajribalar Shodiqul Hamro ijodini anglashda muhim nazariy omil sifatida ko'rib chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shodiqul Hamro hikoyalarining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, adib voqelikni bevosita tasvirlash bilan cheklanmaydi, balki uning ichki, yashirin qatlamlarini ramziy obrazlar orqali ochib beradi. Yozuvchi uchun predmet yoki hodisa faqat tashqi ko'rinishga ega bo'lgan unsur emas, balki inson ruhiyatini anglashga xizmat qiluvchi badiiy vositadir. Shu jihatdan "Suratdagi ayol" hikoyasidagi surat obrazi alohida poetik yuk tashiydi. Hikoyada voqealar oddiy maishiy holatdan boshlanadi: ijarada yashayotgan talaba uy egasi bo'lgan keksa ayolning vafotiga guvoh bo'ladi. Biroq asar rivoji davomida voqelik oddiy hayotiy tasvirdan chiqib, falsafiy va ramziy mazmun kasb eta boshlaydi. Ayolning o'limidan keyingi sirli hodisalar, surat bilan bog'liq g'ayritabiiy jarayonlar inson hayoti va xotirasining murakkab tabiati haqida mushohada yuritishga undaydi. Hikoyadagi asosiy ramz — surat inson umrining muzlagan lahzasi sifatida namoyon bo'ladi. Surat bir tomondan o'tmish xotirasini saqlovchi vosita bo'lsa, ikkinchi tomondan inson taqdirining ochilmagan sirlarini o'zida mujassamlashtiradi. Yozuvchi aynan shu obraz orqali insonning jismoniy mavjudligi tugaganidan keyin ham uning xotiralari, armonlari va ruhiy izlari yashashda davom etishini ko'rsatadi.

Suratdagi ayol obrazi yolg'izlik falsafasi bilan chambarchas bog'langan. U tirikligida jamiyatdan uzoqlashgan, o'z kechinmalarini hech kimga oshkor qilmagan inson sifatida tasvirlanadi. Ammo uning vafotidan keyin hayoti va ichki dunyosi

asta-sekin ochila boshlaydi. Bu holat zamonaviy adabiyotdagi muhim tamoyil — insonning tashqi hayoti bilan ichki olami o'rtasidagi ziddiyatni ko'rsatish usuli bilan bog'liq. Adib hikoyada tun obrazidan ham samarali foydalanadi. Tun an'anaviy poetikada sirli, noma'lum va ruhiy kechinmalar kuchayadigan makon sifatida talqin qilinadi. "Suratdagi ayol" hikoyasida ham asosiy g'ayritabiiy voqealar aynan tunda sodir bo'ladi. Bu esa voqelikning real va noreal qatlamlarini bir-biriga yaqinlashtiradi.

Shodiqul Hamro ijodida ramziy tafakkur jahon modern adabiyoti tajribasi bilan uyg'unlashadi. Xususan, insonning begonalashuvi, yolg'izlik hissi va hayot mazmunini izlash motivlari ekzistensial adabiyotga xos xususiyatlar sifatida namoyon bo'ladi. Albert Kamyu va Frans Kafka ijodida kuzatiladigan insonning absurd vaziyatdagi holati Shodiqul Hamro hikoyalarida milliy ruh va o'zbekona tafakkur bilan uyg'unlashadi.

Biroq yozuvchi G'arb modernizmidagi tushkunlik va umidsizlik kayfiyatlarini to'liq ko'chirmaydi. U ushbu estetik tajribalarni milliy badiiy tafakkur bilan sintez qiladi. Natijada insonning ichki iztiroblari, ma'naviy izlanishlari va ruhiy holatlari o'zbek hikoyachiligi an'analarga mos shaklda ifodalanadi.

"Suratdagi ayol" hikoyasida surat nafaqat voqealar markazi, balki kompozitsion tayanch vazifasini ham bajaradi. Barcha voqealar aynan shu predmet atrofida rivojlanadi. Surat orqali o'quvchi ayolning o'tmishi, uning baxt va armonlari, hayotdagi yolg'izligi haqida tasavvurga ega bo'ladi. Asardagi yana bir muhim jihat — inson ong osti jarayonlarining badiiy ifodasidir. Talaba yigitning surat bilan bog'liq kechinmalari, tush va uyg'oqlik oralig'idagi holatlari inson ruhiyatining nozik qatlamlarini ochishga xizmat qiladi. Yozuvchi tashqi voqeadan ko'ra qahramonning ichki reaksiyasiga katta e'tibor qaratadi.

Bu jihatdan Shodiqul Hamro hikoyachiligi an'anaviy syujet qurilishidan farq qiladi. Unda voqea emas, balki voqea ortidagi ruhiy-falsafiy ma'no muhim o'rin tutadi. Yozuvchi o'quvchini tayyor xulosaga olib kelmaydi, aksincha, ramzlar orqali mustaqil fikrlashga undaydi. Hikoyadagi erkak obrazi ham ramziy mazmunga ega.

Suratdagi erkakning mavjudligi ayol taqdirining noma'lum qirralarini ochadi. Uni suratdan ajratish yoki suratni yirtish haqidagi fikr qahramon oldida axloqiy va ruhiy tanlov masalasini yuzaga keltiradi. Natijada surat oddiy buyum emas, inson hayotining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, Shodiqul Hamro "Suratdagi ayol" hikoyasida ramz, mif va psixologik tasvir vositalari orqali zamonaviy inson obrazini yaratadi. Adibning badiiy mahorati shundaki, u kichik hajmli hikoya doirasida katta falsafiy masalalarni ilgari suradi.

XULOSA

Shodiqul Hamro hikoyalarda ramziylik poetikasi zamonaviy o'zbek nasrining badiiy-estetik imkoniyatlarini kengaytirgan muhim hodisalardan biridir. Adib o'z asarlarida hayotiy voqelikni shunchaki tasvirlash bilan cheklanmay, inson mavjudligining murakkab falsafiy qatlamlarini ochishga intiladi. Uning ijodida ramz oddiy badiiy detal emas, balki inson ruhiyati, xotirasi va taqdirini anglash vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

"Suratdagi ayol" hikoyasi misolida ko'rish mumkinki, yozuvchi kichik janr imkoniyatlaridan unumli foydalanib, insonning yolg'izligi, ichki iztiroblari va hayot mazmuni haqidagi falsafiy masalalarni yoritadi. Hikoyadagi surat obrazi asarning asosiy ramziy markaziga aylanib, o'tmish va bugun, hayot va o'lim, real va noreal olam o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

Shodiqul Hamro ijodida G'arb modern adabiyotiga xos ekzistensial muammolar milliy badiiy tafakkur bilan uyg'unlashadi. Yozuvchi insonning begonalashuvi, ruhiy iztirobi va yolg'izligini tasvirlash orqali zamonaviy jamiyatdagi ma'naviy muammolarni ochib beradi. Biroq bu jarayonda u milliy ruhiyat, insoniy qadriyatlar va o'zbekona tafakkur xususiyatlarini saqlab qoladi.

Adibning ramziy tasvir usuli o'quvchini voqeaning tashqi qatlamidan ichki mohiyatiga kirishga undaydi. Shu sababli Shodiqul Hamro hikoyalari nafaqat badiiy zavq, balki falsafiy mushohada manbai sifatida ham ahamiyatlidir.

Umuman olganda, Shodiqul Hamro ijodida ramziylik poetikasi zamonaviy o'zbek hikoyachiligidagi yangi estetik izlanishlarning yorqin ko'rinishi hisoblanadi. Uning asarlari orqali inson ruhiyatining murakkab qirralari, hayotning yashirin ma'nolari va mavjudlik masalalari o'ziga xos badiiy shaklda ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi. 3 jildlik. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1991.
2. Quronov D. Nazariy qaydlar. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
3. Umurov H. Adabiy ijod asoslari. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashri, 2019.
4. Xolmirzayev Sh. Yoshlar prozasi haqida // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2002.
5. Hamro Sh. Ko'k ko'l. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2025.
6. Kamyu A. Isyon va san'at. // Ziyouz.uz elektron manbasi.
7. Parandovskiy Y. So'z kimyosi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
8. Kafka F. Tanlangan asarlar. – Toshkent.